



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

TURK XOQONLIGI DAVRIDA O'RTA OSIYODA UNVONLAR TASNIFI

Baratov Xamidullo Ismatillo o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, o'qituvchi

Amonberdiyeva Charos Faxriddin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, talaba

Annotatsiya

Ushbu maqolada ilk o'rta asrlar davrida Turk xoqonligi hukmronligi ostida O'rta Osiyo hududida shakllangan unvonlar tizimi tahlil qilinadi. Tadqiqotda siyosiy, harbiy va ma'muriy unvonlarning kelib chiqishi, ularning vazifalari hamda jamiyat ierarxiyasidagi o'rni tasnifiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, unvonlar tizimining davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilishiga ta'siri tarixiy manbalar asosida baholanadi.

Kalit so'zlar: Turk xoqonligi, O'rta Osiyo, unvonlar tizimi, ierarxiya, davlat boshqaruvi, harbiy unvonlar, ma'muriy tuzilma, ijtimoiy tuzilish, ilk o'rta asrlar.

КЛАССИФИКАЦИЯ ТИТУЛОВ В СРЕДНЕЙ АЗИИ В ПЕРИОД ТЮРКСКОГО КАГАНАТА

Х. Баратов

Шахрисабзский государственный педагогический институт, преподаватель

Амонбердиева Чарос Фахриддин кизи

Шахрисабзский государственный педагогический институт, студентка

Аннотация

В данной статье анализируется система и иерархия титулов, сформировавшихся в Средней Азии под властью Тюркского каганата в период раннего средневековья. На основе исторических источников освещаются функции титулов в центральном и местном управлении, их роль в истории узбекской государственности и общественно-политическое значение.

Ключевые слова: Тюркский каганат, Средняя Азия, система титулов, иерархия, государственное управление, Ябгу, Тудун, Эльтабар, раннее средневековье.

CLASSIFICATION OF TITLES IN CENTRAL ASIA DURING THE TURKIC KHAGANATE

Baratov Xamidullo Ismatillo o'g'li

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Lecturer

Amonberdiyeva Charos Faxriddin qizi

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Student

Abstract

This article analyzes the system and hierarchy of titles formed in Central Asia under the rule of the Turkic Khaganate in the early Middle Ages. Based on historical sources, the research highlights the functions of titles in central and local administration, their role in the history of Uzbek statehood, and their socio-political significance.

Keywords: Turkic Khaganate, Central Asia, title, system, hierarchy, state administration, Yabgu, Tudun, Elteber, early Middle Ages.

Ilk o'rta asrlar davrida Markaziy Osiyo hududi murakkab siyosiy jarayonlar va davlatlararo aloqalari bilan ajralib turadi. Bu davrda davlat boshqaruvi tizimida mansab va unvonlar muhim o'rin egallab, jamiyatdagi iyerarxiyani belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lgan. Ayniqsa, Turk xoqonligi hukmronligi davrida O'rta Osiyo hududida unvonlar tizimi yanada takomillashib, siyosiy va harbiy boshqaruvning ajralmas qismiga aylangan. Ushbu mavzu tanlanishining asosiy sababi xoqonlik boshqaruvining "qon tomiri" bo'lgan unvonlar iyerarxiyasini zamonaviy tarixshunoslik nuqtayi nazaridan qayta tahlil qilishdir. Ko'p hollarda biz unvonlarning faqat nomigagina e'tibor qaratamiz, biroq ularning har biri ortida o'ziga xos ijtimoiy, siyosiy maqom va huquqiy vakolatlar yotadi. O'zbekiston tarixining ajralmas qismi bo'lgan Turk xoqonligi davri Vatanimiz tarixida o'z o'rniga ega bo'lib, arablar bosqiniga qadar hududimizda hukmronlik qilgan va bu yerda ma'lum darajada o'z boshqaruv tartiblarini o'rnatgan. Mavzuning dolzarbligi shundaki, unvonlar tasnifini o'rganish orqali biz o'zbek davlatchiligi tarixining ilk murakkab boshqaruv tamoyillarini kashf etamiz. Mazkur maqolada Turk xoqonligi davridagi unvonlarning tasnifi, bir-biriga tobeligi va davlat boshqaruvidagi o'rni atroflicha tahlil qilinadi.

Ma'lumki, "Ashina" urug'idan bo'lgan Bumin VI asrning ikkinchi yarmida Turk xoqonligiga asos solgan. Bu davlat ko'plab manbalarda "Ko'k Turk xoqonligi" deb atalib, 745-yilgacha hukm surgan [1]. O'rta Osiyo tarixida ikki asrdan ortiq hukmronlik qilgan Turk xoqonligi iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlarini bo'yicha ko'plab tarixshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xoqonlik davrida boshqaruv tuzumi va unvonlar tasnifi Vatanimiz tarixini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu unvonlar keyingi davrlarda ham ma'lum shaklda qo'llanilgan yoki boshqaruvdagi ayrim an'analar avtohtonlik asosida saqlanib qolgan. Masalan, Shayboniylar davrida ham hukmdorlar Turk xoqonligidagidek otaboladan emas, balki yoshi ulug'lardan tayinlangan. Xoqonlikda ma'muriy boshqaruv tizimida qo'llanilgan unvonlarni Xitoy manbalariga tayangan holda tahlil qilgan E.I. Qichanov 28 ta unvonni qayd etgan holda, ularning beshtasini oliy mansablar hisoblagan. Bular xoqon, yabg'u, delo, tutunfa va she unvonlari bo'lib, bularning barchasi harbiy unvonlar hisoblangan va bir vaqtning o'zida davlat boshqaruvida ham muhim o'rin tutgan [2]. G'. Boboyorov esa Turk xoqonligida 40 ga yaqin unvonlarni keltirib o'tgan [3], lekin bu unvonlarning qanchasi mahalliy boshqaruvda, qanchasi markaziy boshqaruvda faoliyat yuritgani haqida ma'lum to'xtamga kelish qiyin [4]. Turk xoqonligida boshqaruv tartiblari haqida so'z boshlashdan oldin shuni e'tiborga olish kerakki, xoqonlikning asosini ko'chmanchi qabilalar tashkil etib, ularda bu davrgacha markazlashgan boshqaruv shakli shakllanmagan edi. Ular o'zlariga tobe etgan hududlarni mahalliy hukmdorlar orqali boshqarganlar. Davlat boshlig'i xoqon (qag'an) bo'lib, oliy bosh qo'mondonlik vazifasini bajargan [5]. Shu jihatdan, xoqonlar ko'plab harbiy yurishlarda shaxsan ishtirok etganlar. Masalan, Kultegin bitiktoshida keltirilishicha, Eltarish xoqon 47 marta harbiy safarlarda qatnashgan va 21 jangda shaxsan ishtirok etgan [6].

Xoqon davlatni boshqarishda tayangan yabg'u unvoni Xitoy muarrixlari asarlarida xoqondan keyingi o'rinda turgan harbiy-ma'muriy unvon sifatida ta'kidlanadi [7]. Yabg'u boshqaruvda xoqondan keyingi o'rinda tursa-da, taxtga davogarlik qila olmas edi. Taxtga davogar shaxsga "tegin" unvoni berilib, ayni damda xoqonning o'g'illari shunday unvon olgan va ularning ismlariga "tegin" unvoni qo'shib aytilgan [8]. Masalan, Kultegin. IX asr muarixi At-Tabariyning keltirishicha, Movarounnahrni arablar bosib olish vaqtida Toxariston hukmdori Ash-Shaz yabg'u unvonini egallab turgan [9]. Bundan ko'rinib turibdiki, yabg'u ham markaziy, ham mahalliy boshqaruvda bevosita ishtirok etgan. Yabg'u unvoni bilan bir qatorda xoqonga harbiy maslahatchi — ayg'uchi ham yaqindan yordam bergan. Ayg'uchi vazifasida ishlagan Tunyuquq [10] Eltarish xoqon, Qapag'anxon va Bilga xoqonlar saroylarida xizmat qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Turk xoqonligida ba'zi amaldorlar ayrim davrlarda amalda xoqondan ham ta'sirliroq bo'lgan va davlat ishlarida o'z o'rniga ega bo'lgan. Turk xoqonlari tobe yurtlarni boshqarishda mahalliy feodallarga eltavar va tudun unvonlarini berib boshqarganlar. Eltavar so'zi, uning ma'nosi va vazifalari haqida Freyman va Livshitslar ilmiy izlanishlar olib borib, uni Turk xoqonligi boshqaruvida ishlatilgan unvon deb hisoblashadi [11].

Tudun unvoni hukmdorning joylardagi noibiga berilgan. Ular mahalliy sulola vakillari siyosati va soliqlar yig'imini nazorat qilganlar. Xitoy yilnomalarida keltirilishicha, G'arbiy Turk xoqoni To'ng Yabg'u o'z vassallariga eltavar unvonini berib, ular nazoratiga bir nafar tudun yuborgani qayd etilgan [12]. Demak, tudunlar eltavarlar ustidan nazorat qiluvchi shaxslar bo'lishgan. Bu mahalliy boshqaruv saqlangan bo'lsa-da, ular ustidan kuchli nazorat o'rnatilganligidan dalolat beradi. Xoqonlikka aloqador unvonlar asosan Xitoy yilnomalari va qadimgi turk bitiktoshlarida saqlanib qolgan bo'lib, ular asosida xoqonlikdagi unvonlar tizimi bo'yicha muayyan tasavvur hosil qilish mumkin. Shuningdek, Vizantiya (yunon), arman, sug'diy, baqtriy va tibet tilidagi manbalarda ham xoqonlikka xos anchagina unvonlar o'rin olgan. Ushbu tillardagi ma'lumotlarning ahamiyati shundaki, ular qadimgi turk bitiktoshlarida uchramaydigan yoki o'qilishi muammoli bo'lgan unvonlarga aniqlik kiritishga yordam beribgina qolmay, balki iyeroglif yozuvli Xitoy yilnomalaridagi unvonlarni tiklashda ham beqiyos o'rin tutadi. Qisqasi, bugungi kunda Turk xoqonligiga xos unvonlarga aloqador o'nlab tillardagi ma'lumotlar asosida xoqonlikda qirqdan ortiq unvon va ellikka yaqin epitetlar mavjud bo'lganligi aniqlangan [13]. G'arbiy xoqonlik unvonlar tizimini tasniflash uchun T. Barfieldning xoqonlik boshqaruv tizimiga doir fikrlariga asoslanish mumkin. Tadqiqotchi Turk xoqonligining unvonlar tizimini quyidagicha ta'riflagan:

1. Markaziy (imperiyaviy) hokimiyat va uni tashkil qiluvchi saroy amaldorlari hamda qanot boshqaruvchilarining unvonlari;
2. Butun xoqonlik tarkibidagi vassal qabilalar va voha hukmdorliklarini nazorat qiluvchi xoqonlik vakillarining unvonlari;
3. Mahalliy o'z-o'zini boshqarishga mas'ul vassal qabilalar va hukmdorliklar boshqaruvchilarining merosiy unvonlari.

G'. Boboyorov ma'lumotlariga ko'ra, xoqonlikning boshqaruv tuzumida qariyb 40 ga yaqin unvon va 50 dan ortiq epitetlar mavjud bo'lib, ularni quyidagicha guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Ramziy:
 - a) ma'muriy;
 - b) harbiy.
2. Ijtimoiy:
 - a) diniy;
 - b) ramziy/faxriy.

Jumladan, yabg'u, shad, tegin, eltabar, tudun, tutuq, cho'r, tarxon, erkin, inanchu, buyruq kabi o'nlab unvonlar va ularning oldida keluvchi apa, inal, kul, tun va hokazo epitetlar rasmiy xarakterda bo'lib, ulardan aksariyati ma'muriy unvonlar bo'lsa, bir qismi harbiy edi.

Tadqiqotchi G'. Boboyorov ma'lumotlariga ko'ra, xoqonlikdagi unvonlar tizimi "pog'onali ulus tizimi"ga asoslangan bo'lib, u markaziy va mahalliy boshqaruvni o'zaro bog'lab turgan [14]. Ushbu unvonlarni funksional vazifalari va iyerarxik darajasiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Oliy davlat hokimiyati (sulolaviy unvonlar)

Bu guruhga faqat xoqon mansub bo'lgan Ashina urug'i vakillari kirgan. Ularning hokimiyati irsiy xarakterga ega bo'lib, davlatning oliy siyosiy va harbiy boshqaruvini ifodalagan [15].

Xoqon — davlatning mutlaq hukmdori, oliy qo'mondon va qonun chiqaruvchi subyekt.

Yabg'u — xoqonlikdagi ikkinchi oliy unvon bo'lib, asosan xoqonning vorislariga yoki imperiyaning g'arbiy qismini mustaqil boshqargan shahzodalarga berilgan.

Shod — ma'lum bir qabila yoki o'lkani boshqarish uchun tayinlangan, Ashina urug'iga mansub oliy martabali shahzoda.

2. Markaziy ijroiya hokimiyati

Xoqon saroyida davlat apparatining kundalik faoliyatini va ijro nazoratini amalga oshirgan amaldorlar [16]:

Buyruq — davlat maslahatchilari yoki vazirlar.

Tarxon — yuqori darajali ma'muriy-harbiy unvon bo'lib, xoqon saroyida alohida imtiyozlarga ega bo'lgan.

Bitigchi — davlat devonxonasidagi barcha yozishmalarga mas'ul bo'lgan kotiblar.

3. Mahalliy ma'muriy va nazorat hokimiyati

Markaziy hokimiyatning bo'ysundirilgan hududlar va vassal o'lkalar ustidan nazoratini ta'minlovchi unvonlar:

Tudun — xoqonning vassal o'lkalardagi muxtor vakili. U asosan soliq yig'ishni nazorat qilgan [17].

Elteber — bo'ysundirilgan mahalliy hukmdorlarga xoqon tomonidan berilgan oliy unvon.

Xulosa. G'arbiy Turk xoqonligida unvonlar tizimi qat'iy iyerarxik asosga ega bo'lib, oliy martabalar — xoqon, yabg'u, shod — asosan avloddan avlodga meros bo'lib o'tgan. Biroq barcha unvonlar ham merosiy xarakterda bo'lmagan. Ba'zi unvonlar shaxsning harbiy jasorati yoki ma'lum bir davlat topshirig'ini bajarishi uchun berilgan bo'lib, bu tizim davlat boshqaruvida ham an'anaviylikni, ham ma'muriy intizomni ta'minlashga xizmat qilgan. Bizning fikrimizcha, xoqonlikda unvonlar sonining 40–50 taga yetishi ularning vazifalari turlicha bo'lganidan emas, balki ko'p hollarda vazifasi o'xshash unvonlarning turli nomlar bilan atalganidan dalolat beradi. Ya'ni, bir xil ma'muriy vazifani bajaruvchi amaldorlar hududiy yoki qabilaviy farqlar sababli turlicha nomlangan bo'lishi mumkin. Masalan, xoqonlik davridagi elteber kabi unvonlar keyinchalik xonliklar davriga kelib o'zgargan bo'lsa-da, ularning vazifasi va boshqaruv uslubi saqlanib qolgan. Unvonlar tizimida markaziy va mahalliy darajadagi vakolatlar aniq taqsimlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boboyorov G'. G'arbiy Turk xoqonligining davlat tuzumi. — Toshkent: Yangi nashr, 2018. — B. 132, 134, 152–157, 159–162, 168–169.
2. Dadaboyev X. Ajdodlarimizning harbiy mahorati. — Toshkent: O'zbekiston, 2016. — B. 95.
3. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. — B. 126–129.
4. Gumilov L.N. Qadimgi turklar. — Toshkent: Fan, 2007. — B. 312–313, 354–355.
5. G'oyibov B. Sug'd tarixidan lavhalar. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. — B. 68.
6. Toyirov Z.T. O'zbekiston tarixi. — Toshkent: Sharq, 1997. — B. 109.